XALQ DEPUTATLARI XOʻJAOBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 27-sentabr VII-9-74-1-27-K/25 Xoʻjaobod tumani

Xoʻjaobod tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarining maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi maʻmuriy-hududiy tuzulishi toʻgʻrisidagi qonunining 27-moddasi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida Respublika aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisidagi Nizomga asosan Xoʻjaobod tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash boʻyicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 18-avgustdagi yigʻilishining №1-sonli bayoni oʻrganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Xoʻjaobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi Andijon viloyati boshqarmasi Xoʻjaobod tumani filiali rahbari A.Abdupattayevning 2025-yil 19-avgustdagi “Xoʻjaobod tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash boʻyicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalari va ishchi guruh tomonidan koʻrib chiqilgan chegara hujjatlari xususida” gi 01-01-885-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Maʼmuriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida Respublika aerogeodeziya Markazining Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan Xoʻjaobod tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 18-avgustdagi yigʻilishining № 1-sonli bayoni tasdiqlansin.

3. Shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) toʻgʻrisidagi maʼlumot 1-ilovaga, sxematik xaritasi 2-ilova muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashidan soʻralsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari A.Mirzaolimov va Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

BOZORBOYEV
JAMSHID RAFIQJON
O‘G‘LI

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2025-yil 27-sentabrdagi
VII-9-74-1-27-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xo‘jaobod tumani shahar va shaharcha hamda qishloqlarining chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	**Shahar va shaharcha hamda qishloqlar nomi**	**Chegara uzunligi** ***(metr)***	**Yer maydoni** ***(gektar)***
1	Hurdiyor qishlog'i	46509	2999,13
2	Birlashgan qishlog'i	70702	6335,69
3	Manak qishlog'i	89867	9184,3
4	Oltinvodiy qishlog'i	32642	2082,56
5	Shahrixonsoy shaharchasi	7491	173,95
6	Chimbuloq shaharchasi	7825	147,79
7	Sanoatchilar shaharchasi	5799	197,09
8	Dilkushod shaharchasi	6839	127,53
9	Manak shaharchasi	5556	119,67
10	Xidirsha shaharchasi	13755	373,47
11	Xo'jaobod shahri	10813	281,07
	Jami	**297 798**	**22 022,25**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani Kengashining
2025-yil 27-sentabrdagi
VII-9-74-1-27-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Xo'jaobod tumanining shahar shaharcha va qishloqlarining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

XARITASI

